

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevd Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinov Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	



KICHIK BIZNES HAMDA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI AMALIY HOLATI, SOHANI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

katta o'qituvchisi

E-mail: ortiqovulughbek@gmail.com

ORCID: 0009-0000-2179-7440

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining amaliy holatini tahlil etish asosida imkoniyatlar va muamolar holatini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar o'rganilgan, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, sanoat hamda aholi bandligini ta'minlashdagi ulushlarining o'zgarish holati va natijalari muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, yalpi ichki mahsulot, aholi bandligi, qurilish, xususiy tadbirkorlik, sanoat, ishlab chiqarish, tahlil, tarmoq.

Abstract: The article examines indicators that determine the state of opportunities and problems based on an analysis of the practical state of small business and private entrepreneurship, in particular, discusses the state and results of changes in the share of small business and private entrepreneurship in GDP, industry and employment.

Keywords: small business, entrepreneurship, GDP, employment, construction, private entrepreneurship, industry, production, analysis, industry.

Аннотация: В статье изучены показатели, определяющие состояние возможностей и проблем на основе анализа практического состояния деятельности субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства, в частности, обсуждается состояние и результаты изменения доли субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства в ВВП, в промышленности и обеспечении занятости населения.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, ВВП, занятость, строительство, частное предпринимательство, промышленность, производство, анализ, отрасль.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini bozor tamoyillariga mos tarzda boshqarishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ularning iqtisodiy tizimdagi o'рни va ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi kerak" [1].

Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, ularning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Richard Kantilon tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda sotish va sotib olishdagi tavakkalchiliklarning naqadar muhim ekanligini o'z izlanishlarida asosiy mezon sifatida ko'rsatgan [5].

Per Lepezan Buagilberg esa samarali boshqaruvda biryozlama harakatlar samarasizligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, boshqaruvda tashqi omillarni inobatga olmaslikning iloji yo'q [6].

A. Tyurgo tadbirkorlikning asosiy funksiyasini faqat pul jamg'arish bilangina cheklab bo'lmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tadbirkorlikning boshqaruv funksiyasi cheklovga solinmasligi kerak [7].

Jan Batist Sey va A. Smit ta'limotlarida erkin bozor, bahoning erkin shakllanishi, tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishi, raqobat muhiti va ichki hamda tashqi savdodagi proteksionizm siyosatining har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik asosida "bozor qonuni" ilgari surilgan [8].

Avstraliyalik olim Jozef Shumpeter esa "tadbirkorni iqtisodiy o'sishning asosiy figuranti" deb atagan. U tadbirkor shaxsda, eng avvalo, yangilikka intilish, iqtisodiyotda dinamik o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi [9].

A. Xosking nazariyalariga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatida yangi bozorlarni egallash marketing siyosati orqali amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, u iqtisodiyot tarmoqlarida tadbirkorlikni boshqarishda konstruktiv qarorlar qabul qilishda davlat va jamiyatning o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [10].

K. Nikolas o'z tadqiqotlarida "tadbirkor" va "menejer" tushunchalari orasidagi farqlarni o'rganib chiqqan. U tadbirkorni yangilikka yuqori qiziqishga ega bo'lgan, o'z kapitalini yangi bozorga yo'naltirish uchun turli usullardan foydalanadigan yuridik shaxs sifatida tavsiflagan [11].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham tadbirkorlik subyektlari faoliyatining amaliy holati, boshqaruvning nazariy va amaliy asoslari hamda sohani rivojlantirish bo'yicha darsliklar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalari orqali keng izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, M. Sharifxo'jayev va A. O'lmasov o'z tadqiqotlarida tadbirkorlikni boshqarishda yaratuvchanlik va bozor mexanizmlariga asoslangan yondashuvlarni ilgari surgan [12].

Shuningdek, K. Muftaydinov ishlab chiqarishning uzluksizligi tamoyillarini asoslab bergan bo'lsa, U. V. G'ofurov esa davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini iqtisodiy asosda tahlil qilgan [13].

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlar mavzuga oid umumiy ilmiy qarashlarni yoritib bergan bo'lsa-da, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish masalasi mustaqil va kompleks ilmiy izlanish ob'ekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa ushbu yo'nalishda yanada chuqur tadqiqotlar olib borishni, aniq vazifalarni belgilab, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asosda ishlab chiqishni taqozo etadi.


TADQIQOT METOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hisobotlari asosida to'plandi. Tahlil jarayonida statistik usullar, solishtirma tahlil va grafik ko'rsatkichlar asosida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyatiga oid asosiy dinamik ko'rsatkichlar o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotga yangi kuch, innovatsion yondashuvlar va moslashuvchan ishlab chiqarish imkoniyatlarini olib kiruvchi muhim sektor sifatida baholash mumkin. Ushbu subyektlar tomonidan tashkil etilayotgan yangi korxonalar zamonaviy texnologiyalar va iste'mol bozorida talablar asosida shakllanadi hamda iqtisodiy faoliyatda muhim o'rinni egallaydi.

Yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmi har yili o'rtacha 105 % o'sish sur'atini namoyon etmoqda. 2024-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi YalMi hajmi joriy narxlarda 1 454 573,9 milliard so'mni tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 6,5 % ga o'sdi. Shu bilan birga, YalM deflyator indeksi 2023-yildagi narxlarga nisbatan 113,3 % darajasida belgilandi(1-rasm).




1-rasm 2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 2020–2024-yillar oralig'ida o'sish dinamikasini ifodalaydi. 2024-yilning yanvar–dekabr oylarida YalM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 54,3 % ni tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2023-yilning tegishli davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi (2-rasm).



2-rasm Kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi ulushi dinamikasi (% da).

Tahlillar natijasida ulushdagi pasayish yoki o'sishning sustligi quyidagi omillar bilan izohlanadi: xususan, "Har bir oila tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi davlat dasturlari yangi tadbirkorlik subyektlarining shakllanishiga zamin yaratgan bo'lsa-da, ajratilgan byudjet mablag'larining manzilli va samarali yo'naltirilmaganligi, pandemiya davrida joriy etilgan qat'iy karantin choralari hamda ishlab chiqarish tarmoqlarida davlat ulushining yuqoriligi kichik biznes salohiyatining to'laqonli ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qilgan muhim omillar sifatida ko'rilmogda (3-rasm).



3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat hajmidagi ulushi.

2024-yil yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 286 675,2 milliard soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, bu umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmining 32,4 % ini tashkil etdi. Oʻsish surʼati 2023-yilning shu davriga nisbatan 118,0 % ni tashkil qilgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 178 718,9 milliard soʻm boʻlib, bu koʻrsatkich umumiy qurilish ishlarining 76,5 % ini tashkil etdi. Qurilish sohasidagi oʻsish surʼati esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ga teng boʻldi.

3-rasmda keltirilgan maʼlumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sanoatlashuv jarayonida hozirgi kunda intensiv uslublardan faol foydalanmoqda. Yaʼni, ular mavjud ichki resurs va imkoniyatlarini kengaytirish orqali ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga intilmoqda.

Biroq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoatlashgan mahsulotlar hajmining yetarli darajada boʻlmasligi sababli yirik sanoat korxonalari bilan ular oʻrtasida hamkorlikdagi uzilishlar kuzatilmoqda. Bu holat, asosan, korporativ aloqalarning yetarli darajada yoʻlga qoʻyilmaganligi bilan izohlanadi.

Mazkur masalaga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti ham eʼtibor qaratib, quyidagi fikrlarni bildirganlar: “Masalan, avtomobilsozlik va qishloq xoʻjaligi mashinasozligi tarmoqlari oʻrganilganda, tadbirkorlik subyektlari va yirik sanoat korxonalari oʻrtasida kooperatsiya deyarli yoʻqligi aniqlangan. Oqibatda, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va butlovchi qismlar koʻp hollarda import qilinmoqda. Achinarlisi, ayrim sanoat korxonalari kichik ishlab chiqaruvchilar u yoqda tursin, xaridorlar talabi asosida ham ishlay olmayapti¹”.

Shuningdek, ular yana shunday taʼkidlaydilar: “Faqat katta korxonalarni qurish orqali aholi bandligini oshirish, daromadlarni koʻpaytirish va byudjet tushumlarini koʻtarish masalalarini toʻliq hal eta olmaymiz. Turmush darajasini yuksaltirishning eng muhim yoʻli – bu tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishdir” [2].

2025-yil 1-yanvar holatiga koʻra, faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 12,1 birlikni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar–dekabr oylarida esa bu koʻrsatkich hududlar kesimida quyidagicha taqsimlangan: Toshkent shahrida – 27,5 birlik, Navoiy viloyatida – 17,7 birlik, Jizzax viloyatida – 13,8 birlik, Sirdaryo viloyatida – 13,7 birlik, va Buxoro viloyatida – 13,6 birlik(4-rasm).



4-rasm. Oʻzbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati.

1 <https://president.uz/oz/lists/view/6925>



Aholi bandligini ta'minlash nafaqat mamlakatning iqtisodiy salohiyatini, balki aholi, xususan yoshlarning turmush darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu jihat ayniqsa aholining 60 foizdan ortig'i yoshlardan iborat bo'lgan O'zbekiston jamiyati uchun alohida ahamiyatga ega.

Belgilangan vazifalar samaradorligini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida bir qator amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Xususan, fermerlik harakati, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, kasanachilik, hunarmandchilik hamda bandlikning boshqa samarali shakllarini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashning yangi mexanizmlari joriy etilmogda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotning ayrim sohalarida o'sish tendensiyasini namoyon etmogda. Shu bilan birga, hali to'liq o'zlashtirilmagan tarmoqlarda ham tadbirkorlik munosabatlarini samarali tashkil qilish zarurati mavjud. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro bozorga tezkor kirib borish, hamda davlat va xususiy sektor o'rtasida iqtisodiy hamkorlikning yangi yo'nalishlarini izlab topish zaruratini yuzaga keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bayon etilgan tahliliy natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim institutsional va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Bu boradagi yutuqlar sohaga barqaror asos yaratgan bo'lsa-da, bugungi kunda mazkur subyektlarning yalpi ichki mahsulotdagi (YalM) ulushini barqaror oshirish yo'lida hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud.

Sohani yanada rivojlantirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va uning YalMdagi ulushini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

ma'muriy va soliq yuklamalarini optimallashtirish orqali tadbirkorlik uchun qulay muhitni kengaytirish;

investitsiyaviy oqimlarni jalb qilish va biznesga moliyaviy resurslar yetkazib berish mexanizmlarini soddalashtirish;

moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida kichik biznes subyektlari uchun kredit va kafolat mexanizmlarini kengaytirish;

eksportga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa konsalting va xalqaro savdo bo'yicha maslahat xizmatlarini rivojlantirish;

zamonaviy marketing strategiyalaridan keng foydalanish, mahsulot va xizmatlarni bozor talablariga moslashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish;

aholi ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish asosida ichki va tashqi bozorlarga sifatli va zarur tovarlar yetkazib berish tizimini rivojlantirish.

Ushbu yo'nalishlarda tizimli yondashuvni shakllantirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining iqtisodiyotdagi ulushini izchil oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyati yanada kengayadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan xorijiy uskuna va zamonaviy minitexnologiyalarni xarid qilish bo'yicha mavjud bozor kon'yunkturasini chuqur o'rganish;

- subyektlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish va bu borada davlat tomonidan ko'maklashish;

- ichki va tashqi bozor imkoniyatlari to'g'risida axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish;

- xalqaro tadbirkorlik subyektlari bilan iqtisodiy va savdo aloqalarini chuqurlashtirish, iqtisodiy savdo geografiyasini kengaytirish;


- kichik biznes subyektlarini ma'lum yo'nalishlarga ixtisoslashtirishda ilmiy asoslangan qarashlarni rivojlantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda yirik korxonalar o'rtasidagi korporativ aloqalarni mustahkamlash;

- yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan noqonuniy tadbirkorlik subyektlari sonini qisqartirish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;
- investitsiyalarning hududiy nomutanosibligini kamaytirish maqsadida viloyatlarni rivojlanish darajasiga qarab 3 toifaga ajratish va sust rivojlangan mintaqalarda investorlar uchun rag'batlantiruvchi shart-sharoitlar yaratish;
- xorijiy erkin industrial zonalarda tovarlar eksporti bo'yicha ilg'or amaliyotni milliy iqtisodiyotda joriy etish;
- mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlash;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning rolini kuchaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy va asossiz aralashuvlarning oldini olish va ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi. 2019-yil 23-iyul. www.gazeta.uz
3. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimovning "2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqi. "Xalq so'zi". 2015-yil 17-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28 dekabr. www.uza.uz
5. Cantillon R. Essay sue la nature du commerce en général (1755). Пер. с франц. Ю. А. Школенко. – Социум, 2003. – С. 17.
6. A Treatise on the Nature of Wealth, Money and Taxation (1704). Authors: Pierre Le Pesant de Boisguilbert, Peter D. Groenewegen. – University of Sydney.
7. G'ofurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dis. avtoref... iqt. fan. d-ri. – T., 2017. – 30-b.
8. Tyurgo A. Izbrannye ekonomicheskie proizvedeniya. – M., 1961. – S. 17.
9. Sey J.-B. Traktat politicheskoy ekonomii. – M., 1986. – S. 17.
10. Shumpeter J. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M., 1982. – S. 161.
11. Xosking A. Kurs predprinimatel'stva: Prakticheskoe posobie. Per. s angl. – M.: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1993. – 352 s.
12. Siropolis N. K. Upravlenie malym biznesom. Rukovodstvo dlya predprinimateley. Per. s angl. – M.: Delo, 1997. – S. 72.
13. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Dis... iqt. fan. d-ri. – T., 2004. – 18-b.
14. O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: "Mehnat", 1995. – 192-b.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100